

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Allayorova Bonu Abdullayevna

Buxoro shahar 2-maktab o‘zbek tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish, ularni dars jarayonida qo‘llash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, milliy hunarmandchilik, tarbiya omili, grammatik mavzu, fanlararo bog‘liqlik.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim tizimida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan asosiy maqsad yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol avlod qilib ta‘lim berish hamda tarbiyalashdir. Zamonaviy maktablar, kompyuter xonalari, yuqori texnologiyalar asosida tashkil etilgan maskanlar – barchasi o‘quvchilarning yetuk shaxs bo‘lib yetishishiga alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga bugungi ta‘lim jarayonlari ham jadal rivojlanib, takomillashib bormoqda. O‘zbek tili darslari ham bundan istisno emas, albatta. O‘zbek tili darslari nafaqat o‘quvchilarning nutqini ravon qilib fikrlash doirasini kengaytirishi, balki o‘zbek tilini amaliyotda qo‘llashda ko‘makchi bo‘lmog‘i lozim. Bunda pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni qo‘llab, darsni tashkil etish o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishi bilan birga ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

“Interfaol” so‘zi ingliz tilida “interact” (rus tilida “ИНТЕРАКТИВ”) tarzida ifodalanib, lug‘aviy nuqtayi nazaridan “inter”- o‘zaro, ikki taraflama, “akt” harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma‘nolarni anglatadi. [1]

Interfaol –o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishini anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta‘lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. [2]

Interfaol metodlar qo‘llangan darslarda o‘quvchi faol ishtirokchi bo‘ladi. Ma‘lum bir qo‘yilgan maqsadga o‘quvchi o‘zi mustaqil fikrlab, izlanib javob topadi.

Shularni inobatga olib, o‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda ijobiy ta‘sir etadi. O‘quvchilarni darsga qiziqitirib, mashg‘ulotlarda faol ishtirokini ta‘minlaydi.

O‘zbek tili darslarida “Milliy hunarmandchilik” mavzusini interfaol metodlar orqali o‘rganish ijobiy natijalarga zamin yaratadi. Misol uchun, 7-sinf hamda 8-sinf o‘zbek tili fani o‘quv rejasida “Milliy hunarmandchilik” mavzusi berilgan. “Milliy hunarmandchilik” mavzusini o‘rganish o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka qiziqishini orttiradi. Shu bilan birga bu mavzu o‘quvchilarning milliy hunarmandchilik haqidagi fikrlarini kengaytiradi. Bu mavzuni o‘tishda turli interfaol usullarni qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.

Ushbu mavzuni bayon etishda dastlab o‘quvchilarga hunarmandchilik va uning turlari haqida videotaqdimot ko‘rsatish mumkin. Hunarmandchilik turlari: duradgorlik,

misgarlik, qandolatchilik, naqqoshlik, gilamdo‘zlik, chinnisozlik, beshiksozlik, kulolchilik, holvapazlik, pichoqchilik va b.lar haqida videotaqdimot orqali o‘quvchilarga tushuncha berish mumkin. Bu hunarlarning barchasini “Kungaboqar” usuli orqali umumlashtirishimiz mumkin.

“Birgalikda o‘rganamiz” (“Koorkeor”) metodini qo‘llagan holda o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilimlar shakllantiriladi. O‘quvchilarga milliy hunar turlari haqida ma‘lumot yig‘ish topshiriladi. Buni oldindan uyga vazifa qilib ham berish mumkin. O‘quvchilar tomonidan taqdimot amalga oshiriladi. O‘quvchilarning ishi o‘qituvchi tomonidan kuzatib boriladi. O‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar tuzatiladi. Qo‘shimcha ma‘lumotlar kiritiladi.

Shundan so‘ng “Moziy bo‘ylab sayohat” metodi orqali yurtimizda azal-azaldan hunarmandchilikning maskanlari ko‘plab bo‘lgani, jumladan, Buxoroda ham ko‘plab hunarmandchilik majmualari bo‘lgani haqida ma‘lumot beriladi. Bunga misol qilib, ikkita ulkan hunarmandchilik maskani: Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaronni keltirishimiz mumkin. “Toqi Telpakfurushon” so‘zi tojik tilidan olingan bo‘lib, “mo‘ynali qalpoq sotish savdo majmuasi” ma‘nosini anglatadi. “Toqi Zargaron” so‘zi ham tojik tilidan olingan bo‘lib, “zargarlik mahsulotlarini sotish savdo majmuasi” ma‘nosini anglatadi. XV-XVI asrda qurilgan bu ulkan ikki majmua Buxoroda mo‘ynali qalpoqchilik hunari hamda zargarlik hunarining rivojlanganidan dalolat beradi. Yana Buxoroda ko‘pgina mahallalar nomi ham hunarmandchilik nomi bilan atalganligi azaldan Buxoro hunarmandchilik markazi bo‘lganidan dalolatdir. Ushbu ma‘lumotlar o‘quvchilarga yetkaziladi. Bunda slaydlar orqali ham hunarmandchilik maskanlari haqida ma‘lumot berish mumkin.

Milliy hunarmandchiligimizning o‘ziga xos jihati shundaki, u har ikki jins vakillari uchun ham taalluqli bo‘lgan. Shularni inobatga olib, har ikki jinsga taalluqli bo‘lgan hunarlarni o‘quvchilar tomonidan topilishi ham yaxshi samara beradi. “Tsxema” metodi orqali o‘quvchilar qaysi hunarning o‘g‘il bolaga, qaysi hunarning qiz bolaga tegishli ekanligini aniqlaydilar.

Bir yigitga qirq hunar oz	Epli qiz –sepli qiz
Pichoqchi	Zardo‘z
Duradgor	Tikuvchi
Novvoy	Patdo‘z
Kulol	Qandolatchi
Beshiksoz	Holvapaz
Zargar	Do‘ppido‘z
Misgar	Kashtado‘z
Naqqosh	Gilamdo‘z

Bundan tashqari mavzuga oid turli topishmoqlarni topish o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid buyumlar haqidagi tushunchasini kengaytiradi. Masalan:

To‘rt oyog‘i bor, To‘rt oyog‘i bor,
Toshdan tuvagi bor. Burnida avaragi.

(Beshik)

Og‘zi qora alomat,
Ichi qizil qiyomat.

(Tandir)

(Sandiq)

Kichkina kelinchak,
Sochpopugi qulochdek.

(Igna, ip)

Hunarmandchilikka doir maqollarni “Davomini top” usuli orqali yodga olish ham o‘z ijobiy natijasini beradi. O‘quvchilarga maqollar aytiladi. Lekin bu maqollar to‘liq bo‘lmaydi. O‘quvchilar tomonidan maqolning davomi topiladi.

Hunarli kishi....(xor bo‘lmas).

Hunar – zar,...(hunarmand - zargar).

Hunari borning...(baxti bor).

Qunt bilan o‘rgan hunar,...(hunardan rizqing unar).

Tasviriy ifodalar orqali turli hunarlarning o‘quvchilar tomonidan topilishi o‘quvchilarning turli hunarlarga qiziqishini oshiradi hamda fikrlash doirasini kengaytiradi.

Qo‘lidan moy tomadi - oshpaz

Dasturxonni to‘kin qiladigan - novvoy

Qo‘li shirin- qandolatchi

Choynak-piyola ustasi- kulol

Qo‘li zar- zardo‘z

Temirni moyday eritadi- temirchi

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning matni o‘qib tushunishi uchun, anglashi uchun turli interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning matni tez o‘zlashtirishiga olib keladi. Masalan, 8-sinf o‘zbek tili darsligida “Milliy hunarmandchilik” mavzusi berilgan. Ushbu mavzuda “Zargarlik san’ati” matni bor. Bu matni o‘rganishda “Insert” metodidan ham foydalansak, yaxshi samaralarga erishgan bo‘lamiz. O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqadilar. Shundan so‘ng quyidagi jadvalni to‘ldiradilar va shu asosda o‘z fikrlarini bayon etadilar. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash hamda tahlil qilish imkoniyatini beradigan vositadir.

“√” bilganlarimni tasdiqlaydi	“+” Yangi axborot	“-” Bilganlarimga zid keladi	“?” Meni o‘ylantirib qo‘ydi
O‘zbekistonda zargarlik san’ati qadimiy an’analarga ega. Zargar ustalar asrlar mobaynida noyob taqinchoqlarni yasab, barchaning e’tiborini qozonganlar	XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zargarlik buyumlarini ishlab chiqaradigan fabrikalar yuzaga kela boshladi.	Bu esa zargarlik buyumlarini bir xil qolipga solib qo‘yishga olib keldi.	Bugungi kunda zargarlik kasb-hunar kollejlarida tahsil olgan va zargarlik hunarini o‘rgangan yosh ustalarning safi kengayib bormoqda.

Bunday usulda mavzuni o‘tish dars samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Shunday darslar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishi, nutqini rivojlantirishi bilan birga turli hunarlarga qiziqishiga zamin yaratadi.

O‘zbek tili darslarida grammatik mavzularni o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning grammatik qoidalarni osonroq o‘zlashtirishi uchun katta ahamiyatga ega.

5-sinf o‘zbek tili darsligida “Narsa-buyum otlari” mavzusi berilgan. Bunda narsa-buyum otlarining so‘z yasovchi qo‘shimcha bilan hosil bo‘lishi haqida ma’lumot beriladi. Agar bu mavzuni “Yetti qadam” metodi orqali tushuntirsak, dars samaradorligi oshadi hamda o‘quvchilarni qiziqtirib qo‘yadi. Bunda o‘quvchilarga o‘zgarishlar bo‘ylab sayohat qilish foydali ekanligi tushuntiriladi.

1-qadam	O‘zgarishlarning kundalik yangiliklari So‘z tarkibida o‘zgarishlar
2-qadam	Birinchi mukofotlar Taroq, bo‘yoq
3-qadam	Yuqoriga tirmashish Tara oq, bo‘ya oq
4-qadam	Qoqilish toshi Tara oq, bo‘yaoq
5-qadam	O‘zgarishlarning boshlanishi Tara+oq, bo‘ya+ oq
6-qadam	O‘zgarishlarga turtki -oq
7-qadam	O‘zgarishlar muqarrar Taroq, bo‘yoq

Bunda o‘quvchilarga narsa-buyum otlariga so‘z yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishi tufayli a unlisining o ga aylanishi “Yetti qadam” usuli orqali tushuntirilishi o‘quvchilarning mavzuni oson o‘zlashtirishi uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tili darslarida “Maktub” metodidan ham foydalanish mumkin. 5-sinf o‘zbek darsligida “Sifat” mavzusi berilgan. Ushbu mavzu yuzasidan o‘quvchilarga rang-tus, maza-ta’ m, xil-xususiyat, hajm-o‘lchov, shakl-ko‘rinishni bildirgan sifat so‘zlar beriladi. Maktublarda rang-tus, maza-ta’ m, xil-xususiyat, hajm-o‘lchov, shakl-ko‘rinish sifatleri nomi yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar berilgan sifat so‘zlarni maktublarga joylaydilar. Bu metod orqali o‘quvchilarning sifat mavzusini qanchalik o‘zlashtirganlarini bilib olish mumkin.

8-sinf hamda 7-sinf darsligimizda grammatik mavzu sifatida “Sifatdosh, uning yasalishi va imlosi” mavzusi berilgan. Bu mavzuni “Ertaklar, yaxshilikka yetaklar” hamda “Biologiyani yodga olamiz” metodi orqali o‘quvchilarga mavzuni

tushuntirsa, o‘quvchilar tomonidan murakkab mavzuni o‘zlashtirish osonlashadi. Biz bilamizki, biologiyadan o‘quvchilar payvandlash mavzusini o‘tganlar. Bir mevali daraxtni boshqa bir mevali daraxtga payvand etsak, boshqa bir mevaning ta‘mi hosil bo‘lishini o‘quvchilar biladilar. Shu usulni biz grammatikaga qo‘llasak, o‘quvchilarning ham biologiyaga oid bilimlari yodga olinadi, ham sifatdosh mavzusiga doir bilim shakllanadi. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir bog‘bon bo‘lgan ekan. Bog‘bonning fe‘l degan daraxti bor ekan. Bog‘bon shu daraxtidan ko‘p nihol ekibdi. Bir niholni sifat degan daraxt bilan payvand etibdi. Unda fe‘lning ham, sifatning ham xususiyati bor ekan. Undan qanday daraxt paydo bo‘libdi? Undan Sifatdosh degan daraxt paydo bo‘libdi”. Shu kabi usullar orqali mavzu o‘tilsa, mavzuni o‘zlashtirishda yaxshi samara beradi. Bu metodni “Sof fe‘l. Harakat nomi. Ravishdosh” kabi mavzularda ham qo‘llansa bo‘ladi.

O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga ta‘lim berish bilan birga ularning ma‘naviy olamini yuksaltirish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, 10-sinf o‘zbek tili darsligida “Fazilat” mavzusi berilgan. Bu mavzuni mustahkamlash maqsadida hamda o‘quvchilarning tarbiya, odobini yaxshilash uchun “Yeti bo‘ston” interfaol usulidan foydalansak bo‘ladi. Sinf taxtasida yetti bo‘ston, ya‘ni bog‘ tasviri ilingan bo‘ladi. Birinchi bo‘ston - ilm bo‘stoni, ikkinchi bo‘ston- muomala bo‘stoni, uchinchi bo‘ston- ixlos bo‘stoni, to‘rtinchi bo‘ston - kamtarlik bo‘stoni, beshinchi bo‘ston- rizo bo‘stoni, oltinchi bo‘ston- saxovat bo‘stoni, yettinchi bo‘ston - umid bo‘stoni bo‘ladi. Bu bo‘stonlarning har birida insonning qusurlari, ya‘ni salbiy jihatlari berilgan bo‘ladi, ya‘ni qora qog‘ozchada yopishtirilgan bo‘ladi. O‘quvchilarga har bir bo‘stonda bo‘lishi kerak bo‘lgan ijobiy fazilatli qog‘ozchalar hamda ularning orqa tomonida o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun savollar beriladi. O‘quvchilar savollarga javob berishadi hamda yetti bo‘stonni salbiy jihatlardan xoli qilib, bo‘stonni ijobiy fazilatlar bilan to‘ldirishadi. Dastlab o‘quvchilarga savol bilan murojaat etiladi.

- O‘quvchilar, qani aytingchi, yetti raqami bilan bog‘liq qanday narsalar, joy nomlari bor?

O‘quvchilar :

- Haftaning yetti kuni, yetti xazina, yetti pir, dunyoning yetti mo‘jizasi, yetti qit‘a, Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” (“Yeti sayyora”) asari kabi javoblarni berishi mumkin.

O‘qituvchi tomonidan aytiladi:

- Hayot bo‘stoni yettita bog‘, lekin bu bog‘larning o‘ziga xos kamchiligi bor. Bu bog‘lar to‘kis bo‘lishi uchun, o‘quvchilar, siz savollarga javob berishingiz kerak. Shu bilan birgalikda siz o‘zingizning fe‘l-atvoringizdagi kamchiliklaringizni tuzata olsangiz hayotingiz go‘zallashadi.

Birinchi bo‘stondagi savollarga javob berib o‘quvchilar ilm bo‘stonidan nodonlik va johillikni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda donolik va bilimdonlik fazilatlarini paydo bo‘ladi. Ikkinchi muomala bo‘stondagi savollarga javob berib o‘quvchilar muomala bo‘stonidan adovat va hasadni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda xushmuomalalik va havas fazilatlarini paydo bo‘ladi. Uchinchi ixlos bo‘stonidagi savollarga javob berib o‘quvchilar ixlos bo‘stonidan yolg‘on va gumonni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda rostgo‘ylik va ishonch fazilatlarini paydo bo‘ladi. To‘rtinchi

kamtarlik bo‘stonidagi savollarga javob berib o‘quvchilar kamtarlik bo‘stonidan takabburlik va mag‘rurlikni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda kamtarlik va kamsuqumlik fazilatlari paydo bo‘ladi. Beshinchi rizo bo‘stonidagi savollarga javob berib o‘quvchilar rizo bo‘stonidan manmanlik va qaysarlikni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda kamtarlik va xushtavozelik fazilatlari paydo bo‘ladi. Oltinchi saxovat bo‘stonidagi savollarga javob berib o‘quvchilar bo‘stondan baxillik, ochko‘zlikni yo‘qotadilar, natijada bo‘stonda saxiylik va ochiqko‘ngillik fazilatlari paydo bo‘ladi. Yettinchi umid bo‘stonidagi savollarga javob berib o‘quvchilar umid bo‘stonidan tushkunlik va umidsizlikni yo‘qotadi. Natijada bo‘stonda umid va ishonch fazilatlari paydo bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash bilan birgalikda ma‘naviy olamini kengaytirish mumkin.

Bundan tashqari ushbu metodni 7-sinf darsligidagi “Ona tabiat-buyuk ne‘mat” bobida davom ettirishimiz mumkin. Xalqimiz azal –azaldan jonivorlarga, tabiatga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan. Shu munosabat bilan ro‘zg‘orda foydali bo‘lgan jonivorlarga, buyumlarga ham ta‘rif bergan. “7 xazina” metodi orqali ham o‘quvchilarga ro‘zg‘or, ya‘ni xo‘jalik uchun ahamiyatli jonivorlar, buyumlar haqida tushuncha hosil qilish mumkin. O‘quvchilarga qadimda xalqimiz turli ahamiyatli bo‘lgan jonivorlarga, buyumlarga nom berganligi va ularni yetti xazina deb atagani haqida ma‘lumot beriladi. Shunda so‘ng o‘quvchilarga yetti xazina bilan bog‘liq savollar beriladi. Ham obi yovg‘on ham dori-darmon nima? (Tovuq) Ro‘zg‘orning qassobi va baqqoli nima? (Sigir) Oilaning tabibi nima? (Asalari) Qizlarning sepi nimadan hosil bo‘ladi? (Ipak qurti) Qozon nima tufayli yog‘ga to‘ladi?(Objuvoz) Qorinning belbog‘i nima tufayli mustahkam bo‘ladi?(Tegirmon) Imorat “suyagi” deb nimaga ta‘rif berganlar?(O‘rmon) kabi ro‘zg‘or uchun foydali jonivor va buyumlar nomlari topiladi. Bu kabi ma‘lumotlar o‘quvchilarni kelgusida ro‘zg‘or tutishida katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash maqsadida moychechak yaprog‘i beriladi. Yaproqlarda o‘tilgan mavzular bo‘yicha savollar bo‘ladi. O‘quvchilar tomonidan savollarga javoblar beriladi. Har bir savol bergan o‘quvchi gul yaprog‘idan gul hosil qiladi. Natijada moychechak guli hosil bo‘ladi. Moychechak gulini o‘quvchilar birgalikda hosil qilishadi. Bu o‘quvchilarni o‘zaro birdamlikka olib keladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarga savol beriladi: “Moychechakning qanday ahamiyati bor? Tibbiyotda qachon moychechak gulidan foydalaniladi? Moychechak gulining qanday xususiyatlari bor?” Shunday qilib o‘quvchilar tomonidan ham moychechak guli hosil qilinadi, ham uning xususiyati bilib olinadi.

Rus adiblaridan Valentin Katayevning “Yetti xil rangli gul” (“Цветик-семицветик”) hikoyasi bor. Ushbu hikoyani ham o‘rganish, ham o‘tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida “Kamalakning yetti jiloli guli” metodidan ham foydalanish mumkin. O‘quvchilarga yetti xil rangdagi qog‘oz beriladi. Oq, pushti, qizil, sariq, ko‘k, olovrang, yashil rangli gul barglari beriladi. Har bir gulbargda savollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar savollarga javob berishadi. Shu bilan birgalikda yetti xil rangli gul hosil qilishadi. O‘quvchilarga gul haqida ma‘lumot beriladi. O‘quvchilarning

kelgusidagi rejalari, orzu-istaklari haqida ham soʻraladi. Bu orzu-istaklar amalga oshishi uchun, albatta, oʻquvchilar oʻqishlari, harakat qilishlari uqtiriladi.

Oʻquvchilarning oʻzbek tili darslarida imloviy savodxonligi hamda diqqatini oshirish maqsadida “Xatolar orolchasi” metodidan ham foydalanish mumkin. Bu usulda imloviy xato yozilgan soʻzlar slaydda berilgan boʻladi. Oʻquvchilar bularning imloviy xatosini topishi kerak boʻladi. Shu bilan birga turli mavzuga oid soʻzlarni ham yozib, oʻquvchilar tomonidan ajratib topilishi mumkin. 7-sinf oʻzbek tili darsligida “Milliy hunarlar”, “Zamonaviy hunarlar” mavzulari berilgan. Ushbu mavzularni mustahkamlash maqsadida “Xatolar orolchasi” metodidan foydalanishimiz mumkin. Slaydda zamonaviy hunarlar bilan milliy hunarmandchilik hunarlariga oid soʻzlar qoʻshilib, imloviy xato bilan yozilgan boʻladi. Oʻquvchilarning vazifasi bularni ajratish, yaʼni qaysi soʻzning qaysi hunarga tegishli ekanligini hamda soʻzning imloviy xatosini aniqlash boʻladi. Bu usul orqali oʻquvchilarning imloviy bilimlarini hamda oʻtilgan mavzular boʻyicha bilimlarini mustahkamlash mumkin.

Yana oʻzbek tili darslarida “Bir daqiqa” metodidan keng foydalanish mumkin. 7-sinf oʻzbek tili darsligida “Ona tabiat - buyuk neʼmat” nomli bob bor. Ushbu bobni mustahkamlashda “Bir daqiqa” metodini qoʻllasak boʻladi. “Bir daqiqa ichida uy hayvonlari nomini yozing”, “Bir daqiqa ichida yovvoyi hayvonlar nomini yozing”, “Bir daqiqa ichida qushlar nomini yozing”, “Bir daqiqa ichida dorivor oʻsimliklarni yozing” kabi topshiriqlar berish mumkin. Oʻquvchilar qiziqib yozishadi. Bu metod oʻquvchilardan tezkorlik hamda maʼlum mavzu doirasida bilimni talab etadi.

7-sinf oʻzbek tili darsligida “Kasb qanday tanlanadi?” mavzusi bor. Bu mavzuda “Charxpalak” metodini keng qoʻllash mumkin. Bu usul oʻquvchilarning diqqatini oshiradi va fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Bu metod oʻquvchilarni topqirlikka, zukkolikka olib keladi. Hamda turli kasblarga oid bilimni oshiradi.

Kasblar	Odam-odam	Odam-tabiat	Odam-texnika	Odam-belgilar tizimi	Odam-badiiy obraz
Oʻqituvchi	+				
Bogʻbon		+			
Muзейshunos					+
Operator			+		
Hisobchi				+	

“Eng,eng,eng...” metodi orqali ham oʻquvchilarni topqirlikka oʻrgatish mumkin. Bu metod oʻquvchilardan eng katta, eng kichik narsalarni topishni talab etadi. Turli geografik joylar, turli shaharlar, joy nomlarini topish, “Gennisning rekordlar” kitobidagi maʼlumotlarni topish oʻquvchilardan zukkolikni talab etadi. 7-sinf oʻzbek tili darsligida “Eng,eng,eng...” nomli bob bor. Bu bob asosida darsni mustahkamlashda “Eng, eng, eng...” metodidan foydalanish mumkin. Eng uzoq umr koʻruvchi daraxt qaysi? Eng koʻp oq qogʻoz beruvchi daraxt qaysi? Eng baland togʻ qaysi? Dunyodagi eng baland choʻqqi qaysi? Dunyodagi eng uzun daryo qaysi? Eng

chuqur ko‘l qaysi ko‘l? Eng sersuv daryo qaysi daryo ? Eng katta ko‘l qaysi ko‘l? Eng seruyqu hayvon qaysi? Dunyodagi eng katta osh qayerda damlandi? kabi savollar orqali o‘tilgan mavzularni mustahkamlash mumkin.

7-sinf o‘zbek tili darsligida “Yer sayyorasi” mavzusi bor. Bu mavzuni mustahkamlashda “Ikki qismli kundalik” metodini qo‘llashimiz mumkin. O‘quvchilarga daftarni ikki qismga ajratish topshiriladi. Bir qismiga Yer sayyorasini asrash haqidagi fikrlarini yozish, ikkinchi qismiga gaplarda qatnashgan fe’llarni yozib, zamonini aniqlash topshiriladi. Bu usul o‘quvchilarning ham leksik, ham grammatik bilimlarini rivojlantiradi.

11-sinf o‘zbek tili darslarida yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodi berilgan. Ushbu mavzularni mustahkamlash maqsadida “Zinama-zina” , “Idrok xaritasi” usullaridan keng foydalanish mumkin. Bu usullardan, masalan, “Zinama-zina” metodidan Sharof Rashidov hayoti va ijodini o‘rganib, mustahkamlash uchun o‘quvchilarga qog‘ozlar beriladi. Bu qog‘ozlarda adibning bolalik yillari, adibning ta’lim olgan yillari , adibning dastlabki faoliyat yuritgan joylari, adibning Ikkinchi jahon urushida faoliyat yuritgan yillari, adibning asosiy ish faoliyati, adib ijodi kabi sarlavhalar yozilgan bo‘ladi. Bu sarlavhalarni o‘quvchilar ma’lumotlar bilan to‘ldiradilar hamda bu ma’lumotlarni zinama-zina, ya’ni adibning hayoti va ijod faoliyatiga qarab joylashtiradilar. Bu metod o‘quvchilarda bilimdonlikni, topqirlikni, diqqatni rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, interfaol metodlar bilan o‘zbek tili darslarini tashkil etish dars samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarning fanga qiziqishi ortadi. Bunday usullar orqali dars o‘tish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi bilan birga ularning bilimlari mustahkamlab boriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi/metodik qo‘llanma. D. Ro‘ziyeva, M. Usmonboyeva, Z.Holiqova. TDPU Toshkent-2013
2. 11-sinf o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. F. Tolipova, F.Aydarova. Toshkent-2020
3. 5-sinf o‘zbek tili darsligi. A. Rafiyev G. Muxammedjanova, N.Alovuddinov.Toshkent-2020
4. 7-sinf o‘zbek tili darsligi. D. A. Xidoyatova, M. Tulasheva, N.Rasulov, N.Matlatipova, N. Allambergenova, O. Beganchova. Toshkent-2022
5. 8-sinf o‘zbek tili darsligi. X.S. Muxitdinova . Toshkent-2019
6. 11-sinf o‘zbek tili darsligi. X.S. Muxitdinova, G. Muxammedjanova, F. S.Tolipova . Toshkent-2018